



AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH VA UNDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

ERGASHEV TOLIBJON ESHQOBILOVICH

– f.f.b.f.d., (PhD), dotsent,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Boshqaruv samaradorligi agentligi

Jizzax viloyati filiali bosh inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ilm-fanini jahon standartlari darajasiga olib chiqishi inson resurslari va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri ekanligi. Axborotlashgan jamiyatda inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishning sifati va samaradorligi bevosita ularga berilgan ta'lim darajasi va mazmuniga bog'liq ekanligi. Oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilar mamlakatning turli sohalarida mehnat faoliyatini ko'rsatishni boshlashdidi va aynan shu jarayonda ular o'rgangan bilim va ko'nikmalarning jamiyat talablariga qay darajada mos ekanligi yoki aksi namoyon bo'lishi, oliy ta'lim tizimini mamlakat rivojlanish ehtiyojlarining barcha parametrlariga mos ravishda innovatsion takomillashtirishi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, inson resurslarini boshqarish, inson salohiyati, inson kapitali, jamiyatni modernizatsiyalash, oliy ta'lim, sifati va samaradorlik, innovatsiya, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В статье показано, что доведение науки Узбекистана до мировых стандартов является одной из приоритетных задач развития человеческих ресурсов и человеческого капитала. Качество и эффективность управления и развития человеческих ресурсов в информационном обществе напрямую зависят от уровня и содержания предоставляемого им образования. Научно проанализирован процесс трудоустройства выпускников высших



учебных заведений в различных отраслях экономики страны, а также степень соответствия полученных ими знаний и навыков требованиям общества и наоборот, инновационное совершенствование системы высшего образования в соответствии со всеми параметрами потребностей развития страны.

Ключевые слова: информационное общество, управление человеческими ресурсами, человеческий потенциал, человеческий капитал, модернизация общества, высшее образование, качество и эффективность, инновации, цифровая трансформация.

Abstract: This article shows that bringing Uzbekistan's science to world standards is one of the priority tasks of developing human resources and human capital. The quality and effectiveness of human resource management and development in an information society directly depends on the level and content of the education provided to them. The fact that graduates of higher educational institutions begin to work in various sectors of the country and in this process, the extent to which the knowledge and skills they have learned correspond to the requirements of society or vice versa, and the innovative improvement of the higher education system in accordance with all parameters of the country's development needs are scientifically analyzed.

Key words: information society, human resource management, human potential, human capital, modernization of society, higher education, quality and efficiency, innovation, digital transformation.

Kirish

Hozirgi zamon globallashib axborotlashgan jamiyat sari dadil qadamlar bilan bormoqda va bu axboriy borliq sun'iy intellekt, raqobat va innovatsiyalar, inson bilimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishiga asoslangan davr hisoblanadi. Bunday sharoitda har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashi, jahon maydonida munosib o'rin egallashi va barqaror rivojlanishga erishish maqsadida inson kapitali va inson resurslarini rivojlantirishga



asosiy e'tiborini qaratmog'da. Shu jihatdan, oliy ta'lim sohasi nafaqat mutaxassislar tayyorlash maskani, balki har bir mamlakatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi strategik ahamiyatga ega muassasa va tizim sifatida qaralmog'i lozim.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar qatorida fan va ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohalarni uzviy bog'liq holda rivojlantirish O'zbekiston ilm-fanini jahon standartlari darajasiga olib chiqishi, inson resurslari va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, fan sohasi va ta'lim tizimini alohida dasturlar, strategiyalar va konsepsiyalar asosida rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarini isloh qilish, ilmiy-ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyatga jalb etish, zamonaviy laboratoriyalar, IT Park va IT markazlarni tashkil qilish kabi chora-tadbirlar bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar samardorligini oshirmoqda. Bunday islohotlar bu ikki sohaning uzviyligini ta'minlash, ilm-fan sohasini jahon standartlari darajasiga chiqarish, kadrlar tayyorlash, inson resurslarini rivojlantirish va ilm-fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, raqobatbardosh mutaxassislash tayyorlash va yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

Qonunchilik

O'zbekistonda 2022-2025 yillar davomida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, uni isloh qilish va jahon standartlariga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish, xorijiy davlatlarning yuqori malakali mutaxassislarni yurtimizga jalb qilish, universitet va institut talabalarini ishga joylashtirish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ular amaliyotda o'z natijalarini bera boshladi.

Yurtimizda 2022 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 120 ta, nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 20 ga yaqin va unda tahsil oluvchi talabalar soni 1,2 milliondan ziyodroq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib oliy ta'lim muassasalari soni 200 dan ziyodni, nodavla va xususiy oliy ta'lim dargohlari 60 dan ziyodni va



ularida ta'lim oluvchilar 1,8 million nafardan ziyodni tashkil qildi. Yoshlarni oliy ta'limda qamrab olish 2016 yilda 8-9 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda 28 foizga va 2025 yilda 40 foizga oshdi. Shu raqamlarning o'zi O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning natijasini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu jarayonlarning markazida esa ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va jahon ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuv maqsadlari turibdi.

O'rganishlar va tadqiqotlar

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, uning mazmun-mohiyatini yangilash, zamon va makonga hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga doir islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ta'limni boshqarish mexanizmlari, talabalarni o'qishga rag'batlantirish, sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish, baholash mezonlari va tashkiliy-iqtisodiy usullar ham qayta ko'rib chiqilayotgani va har bir davlatning o'z standartlari muvofiq moslashtirilayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"¹ (BRM)ning 4-maqsad – "Sifatli ta'lim" alohida o'rin tutadi. Bu maqsadlarga erishishda ta'lim tizimini samarali boshqarish, ta'lim sifatini baholash mexanizmlari va vositalarini takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Unga ko'ra o'qituvchi va ta'lim sohasi mutaxassislarini asosiy markazga qo'ygan holda butun mamlakatdagi ta'lim sohasini raqamlashtirish, sifatini baholash mezonlarini diversifaksiya qilish orqali islohotlarni olib borish muhim sanaladi. Bunda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlardan foydalanish asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni jamiyat talablari va jahon standartlariga mos holda takomillashtirish borasida katta qadamlar qo'yilmoqda. Ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, yangi universitet, institut va xorijiy davlatlar oliy o'quv yurtlari filiallarning ochilishi, nodavlat ta'lim muassasalarining ko'payishi, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni

¹ SDG 4 – Sustainable Development Goal 4 (UN site) <https://sdgs.un.org/goals/goal4>



kuchaytirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va kadrlar tayyorlashda sifat mezonlarining joriy etilishi ana shunday islohotlarning amaliy natijalaridir. Bu o'zgarishlar O'zbekistonning barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan siyosatining ajralmas qismi bo'lib xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatning muhim xususiyatlaridan biri bu – inson resurslarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilishidadir. Mazkur konsepsiyaga ko'ra tashkilot yoki oliy ta'lim muassasalari manfaatlarini ta'minlash yo'lida xodimning o'z tashabbusi bilan samarali mehnat qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish markaziy masala deb qaraladi. Boshqarma yoki muassasa esa insonni rivojlantirish omili sifatida xodimlarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Shuningdek, xodimlarning kasbiy mahorati va shaxsiy kamolotga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib beradi.

Axborotlashgan jamiyat – bu bilim, intellekt, axborot va innovatsiyaga asoslangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali boshqariladigan jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatda taraqqiyotning asosiy omili inson kapitali va inson resurslari hisoblanadi. Shu bois inson resurslarini rivojlantirish har qanday tashkilot, oliy ta'lim muassasasi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

O'rganish va tahlillarimizga ko'ra axborotlashgan jamiyat sharoitida inson resurslarini samarali rivojlantirish, ularning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash hamda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha quyidagi konsepsiyani ishlab chiqdik. Unga ko'ra:

Konsepsiyaning asosiy vazifalari:

- inson resurslarini strategik aktiv sifatida baholash va uni rivojlantirish;
- davlat tashkilotlari va xususiy sektorda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar, oliy o'quv yurti talabalarining ehtiyojlarini o'rganish va ularga mos shart-sharoitlar yaratish;



-har bir kasb va mutaxassislikning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan o'quv kurslari, treninglar, sohalarga ixtisoslashgan maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;

-har bir individda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

-shaxsiy rivojlanish (soft skills) va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va qobiliyatlarini mustahkamlash;

- har bir sohaning o'z yo'nalishlaridan kelib chiqib motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Konsepsiyaning asosiy tamoyillari esa quyidagilardan iborat:

a) innovatsion yondashuv – yangi texnologiyalar, intellektual bilimlardan foydalanib samarali rivojlanishni ta'minlash;

b) ta'lim olishning davomiyligi – inson umri davomida o'qish, bilim olish va intellektual rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi;

v) insonparvarlik tamoyili – mamlakatning har bir fuqarosiga shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, o'sishiga teng imkoniyatlar yaratish;

g) har bir tashabbusni qo'llab-quvvatlash – davlat va xususiy sektor sohalari mutaxassislari, oliy ta'lim sohasi vakillarining ijodkorlik va mustaqil fikrlashlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Kutilayotgan natijalar:

-inson kapitali va inson resurslarini rivojlantirish hamda boshqarish salohiyati oshadi;

-oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi;

-davlat va xususiy sektorda, oliy ta'lim muassasalarida samaradorlik va raqobatbardoshlik rivojlanadi;

-axborotlashgan jamiyatda intellektual salohiyatli va bilimli insonlarning roli va hissasi yanada oshadi.



Axborotlashgan jamiyatda inson resurslari sifati va samaradorligi bevosita ularga berilgan ta'lim darajasi va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilar mamlakatning turli sohalarida mehnat faoliyatini ko'rsatishni boshlaydi va aynan shu jarayonda ular o'rgangan bilim va ko'nikmalarning jamiyat talablariga qay darajada mos ekanligi yoki aksi namoyon bo'ladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimini mamlakat rivojlanish ehtiyojlarining barcha parametrlariga mos ravishda innovatsion takomillashtirish lozim.

Samaradorlik – sifatning umumlashgan o'lchovi. Samara deganda faoliyatda qo'yilgan maqsadga to'la va qisman erishish tushuniladi. Ta'lim sifatini oqilona darajaga erishish ta'lim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish ba'zan samardorlikni boshqarish ham deb aytiladi². D.Tojiboevning o'rganishlariga ko'ra samardorlikni baholashda asosan iqtisodiy va ijtimoiy samardorlikka urg'u berilgan.

Samardorlik bevosita ta'lim tizimida ham qo'llanilinadi. Ta'lim muassasasi o'z maqsadlariga erishish ya'ni sifatli ta'lim berish, fanlarni o'zlashtirishi, bitiruvchilarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashishi kabi yo'nalishlarda samardorlik aniqlanadi.

Ta'lim muassasalari faoliyatidagi samardorlik, eng birinchi navbatda o'sha muassasadagi rahbarlar va professor-o'qituvchilarning o'zaro munosabatlari va vazifalar taqsimotining xaqqoniy belgilanganligiga bog'liq. Jamoada ish uslubi oshkoralik, professionallik, intellektuellik asosida tashkil qilinmasa, har qanday yuqori professional kadrlar bo'lmasin, oliy ta'lim muassasasining umumiy samaradorligi va ko'rsatkichlari past bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yuritish uchun rahbariyat va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, bir-birini qo'llash, rahbarga nisbatan hurmat, berilgan topshiriqlar ijrosida hamkorlikda ishlash va vazifalar taqsimotida meritokratiya tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xodim o'z

² Sharifxujayev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. - Toshkent: "O'qituvchi", 2001. - 702 b.



vazifalarini aniq anglagan holda, ta'lim muassasasi shani va jamoa manfaatlari yo'lida faol harakat qilishi lozim.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi rahbariyati ham xodimlarning takliflari, muassasani rivojlantirish, samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarini doimo eshitishga tayyor bo'lishi kerak hamda yangilik va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi lozim bo'ladi. Natijada, bunday harakat ish samardorligini oshiribgina qolmay, balki ish jarayoni va o'qitish muhitiga ijobiy kayfiyat bag'ishlab, ishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar

Axborotlashgan jamiyatda inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, axborot texnologiyalarini samarali joriy yetish, kadrlar tayyorlash sohasini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, sifat va samardorlikni oshirish, universitet va institutlarni tamomlagan bitiruvchilarni mamlakatning turli davlat va xususiy sohalariga yo'naltirish orqali jamiyatda insonning shaxs sifatida o'z o'rnini topishga xizmat qilishi bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1.Oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish:

-universitet va institutlar o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga mos ravishda yangilab borish;

-davlat muassasalari va xususiy sektordagi ish beruvchilar bilan hamkorlikda talabalar uchun stajirovka, amaliyot va trening dasturlarini joriy etish.

2. Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy qilish:

- oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashqil etish;

-davlat va xususiy sektorlarda yangi ish o'rinlarini yaratishda yosh kadrlarga alohida ustuvorlik berish.

3.Inson resurslarini samarali boshqarish va rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish:



-inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishni strategik darajaga ko'tarish va uni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash;

-davlat dasturlari va grantlari orqali malakali kadrlar tayyorlash jarayonini rag'batlantirish lozim.

Xulosa

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyatda inson resurslarini boshqarish, unda oliy ta'limning o'rnini, kadrlar tayyorlash sohasini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, sifat va samardorlikni oshirish, universitet va institutlarni tamomlagan bitiruvchilarni mamlakatning turli davlat va xususiy sohalariga yo'naltirish orqali jamiyatda insonning shaxs sifatida o'z o'rnini topishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda universitet va institutlar faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni amaliyotga yo'naltirish, kasbiy va o'z mutaxassislik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga harakat qilishi lozim. Oliy ta'limni yangi bitirgan yosh mutaxassislar davlat va xususiy sektorlarda qiynalmasdan ish o'rinlarini topishi, jamiyat hayotiga faol kirishib ketishi va o'z o'rniga ega bo'lishi – bu oliy ta'lim muassasalari samardorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanishi lozim.

Shu tariqa, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishni strategik yo'nalish sifatida belgilash, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, insonni jamiyatning asosiy qadriyati sifatida qo'llab-quvvatlash orqali barqaror, raqobatbardosh, inklyuziv va bilimga asoslangan axborotlashgan jamiyat barpo etishiga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
<https://president.uz/uz/lists/view/2604>.



2. **SDG 4 – Sustainable Development Goal 4** (UN site)
<https://sdgs.un.org/goals/goal4>
3. Pearson BTEC O'zbekiston Inson resurslarini boshqarish
<https://qualifications.pearson.com/content/dam/pdf/UzbekistanBTEC/Human-Resources/UZB-9781446965160-Uzbek-TRCBK3-Human-Resources.pdf>
4. Sharifxujayev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. - Toshkent: "O'qituvchi", 2001. - 702 b.
5. T.Ergashev. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала №44, Часть-9, май-2024, С-64-70,
<https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13502>